O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Pulatov Mirkobil Miradilovich

Sana: 28-12-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

228068 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 15-mavzesida Ko‘p qavatli avtoturargoh hududida loyihalashtirilayotgan “Ko‘p qavatli avtoturargoh binosi va bir qismida ko‘p qavatli turar-joy binosini qurib rekonstruksiya qilinayotgan obyektni muhandislik tarmoqlari bilan ta’minlash” ishchi loyihasi.	
Buyurtmachi:	"GREAT VERTEX" MChJ.
Bosh loyihachi:	"NPTS MASSHTAB PROYEKT STROY" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender savdolari asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	028109

1. Loyihalash uchun asos.

Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 06.01.2019-yilda berilgan obyektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga 13896161-1-sonli ruxsatnoma.

O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi tomonidan 31.01.2024-yilda berilgan 1726-1726262-177597-sonli Arxitektura-Rejalashtirish topshirig’i.

Toshkent shahar Qurilish boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organi tomonidan 23.06.2023-yil berilgan 73741-sonli xulosasi. “Suv Parmalash Servis” MChJ tomonidan 2024-yilda obyekt qurilishi maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to’g’risida xulosasi.

Buyurtmachi tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig’i.

“Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJ ning 23.01.2024-yildagi 270/4-184-sonli texnik sharti.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, Toshkent shahar hududiy filiali elektr ta’minotining 29.04.2024-yildagi 05-0777-sonli texnik xulosasi.

“Hududgaz Poytaxt” GTF tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 23.01.2024-yilda berilgan 052200-sonli texnik sharti.

Davlat ekologiya ekspertiza markazi Toshkent shahar filialining 25.09.2024-yildagi 01-02/14-2046-sonli xulosasi.

Buyurtmachi “GREAT VERTEX” MChJ va loyiha tashkiloti “MASSHTAB PROYEKT STROY” MChJ o‘rtasida 02.02.2024-yilda tuzilgan 8/2024-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tashkilotining 16.08.2024-yildagi 32/MB-sonli xat.

"Shaharsozlik Hujjatlarini Ekspertiza Qilish Respublika Markazi" DM ning Toshkent shahar Boshqarmasi tomonidan 19-07-2024-yilda berilgan 212303 – sonli Salbiy xulosasi.

Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “Ishchi loyiha” bo‘yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati
- bosh reja loyiha chizmalari
- arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar
- temirbeton konstruktsiyasi loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar va hisob-kitoblar
- elektr ta’minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar
- yong‘in xavfsizligi tizimi loyihasi bo‘yicha chizmalar
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar
- past kuchlanishli aloqa tizimlari bo‘yicha chizmalar
- isitish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar
- obyektning energiya samarodorlik pasporti
- obyektning qurilishini tashkil etish loyihasi (QTEL).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Qurilish maydonining o‘ziga xos xususiyatlari

- Tuproqning muzlash chuqurligi - 0,7 metr.
- Qurilish maydoning zilzilabardoshligi - 9 ball.
- Me’yoriy qor qatlami vazni - 50kg/m^2.
- Me’yoriy shamol bosimi - 38kg/m^2.
- Yer osti sharoitlari turi - II.

Bosh reja yechimlari.

Loyihalashtirilayotgan ko‘p qavatli turar-joy binolari Toshkent shahar, Uchtepa tumani 15-mavzesida joylashgan bo’lib, Bosh reja bo‘yicha hududga 2 ta 5 qavatli va 5 ta 4 qavatli turar-joy binolari oraliq masofalari saqlangan holda, yo’llarga asfalt qoplamalar va yo’laklarga bruschatkalar terilshi, avtomobil saqlash joyi bilan ta’minlanishi, Mayishiy chiqindi yig‘ish joyi bo’lishi, Besedka, Bolalar o‘yingoxi, Sog‘lomlashtirish maydonchasi bilan ta’minlanishi, hamda bo’sh maydonlar ko’kalamzorlashtirilib obodonlashtirilishi va irrigatsiya tizimi rejalashtirilgan.

Turar joy binosiga kirish yo’lagi zinapoyadan va nogironligi bo’lgan shaxslar uchun pandus bilan ta’minlangan bo’lib tutqichlari qulay va pol qismiga sirpanmaydigan plitkalardan foydalanilgan. Bino atrofi bo’ylab yo’laklar qilinadi.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Umumiy hudud	- 9 555,6 m2.
Umumiy qurilish maydoni	- 4 290,4m2.
Ko’kalamzorlashtirish maydoni	- 2 210,0 m2.
Yo‘l, trotuar va yo’lakchalar	- 3 050,7 m2.

Blok №1 - Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi - yerto‘lali 5 qavatli, 1 sektsiyali, reja bo‘yicha to‘rtburchak shaklda, A-V/1-6 o‘qlari bo’yicha o‘lchamlari 13,4x21,6m, yerto‘la qavati balandligi 3m, va yuqori etajlar qavatlar balandligi 2,9metrdan (poldan shiftgacha). Binoning 1-5-qavatlariga zinapoya xoll, oshxona, yotoqxona, mexmonxona, umumiy xona, tambur, yuvinish va xojatxonasiga ega bo’lgan 4 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto‘la qismida yordamchi xona (texnik xona)

loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko‘tarilish uchun 1ta zina mavjud. Binolarning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, gipsoqorishma, moyli bo‘yog‘, sement-qum qorishmasi va keramogranit ishlatiladi. Xonalarga sifatli MDF eshiklar va plastik oynalar o‘rnatilishi rejalashtirilgan. Tashqi bezagida: tabiiy tosh, va tashqi devor travertin suvoq bilan qoplanadi. Binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari milliy zamonaviy sifatli qurilish materiallaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

Blok №1 Turar-joy binosi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni	323,1 m2.
Binoning umumiy maydoni	1 651,4 m2.
Binoning umumiy hajmi	6 520,7 m3.
Xonadonlar soni	10 ta.
4 xonali	10 ta

Blok №2 - Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi - yerto‘lali 5 qavatli, 1 sektsiyali, reja bo‘yicha to‘rtburchak shaklda, A-V/1-6 o‘qlari bo’yicha o‘lchamlari 13,4x21,6m, yerto‘la qavati balandligi 3m, va yuqori etajlar qavatlar balandligi 2,9metrdan (poldan shiftgacha). Binoning 1-5-qavatlariga zinapoya xoll, oshxona, yotoqxona, mexmonxona, umumiy xona, tambur, yuvinish va xojatxonasiga ega bo’lgan 4 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto‘la qismida yordamchi xona (texnik xona) loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko‘tarilish uchun 1ta zina mavjud. Binolarning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, gipsoqorishma, moyli bo‘yog‘, sement-qum qorishmasi va keramogranit ishlatiladi. Xonalarga sifatli MDF eshiklar va plastik oynalar o‘rnatilishi rejalashtirilgan. Tashqi bezagida: tabiiy tosh, va tashqi devor travertin suvoq bilan qoplanadi. Binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari milliy zamonaviy sifatli qurilish materiallaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

Blok №2 Turar-joy binosi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni	323,1 m2.
Binoning umumiy maydoni	1 651,4 m2.
Binoning umumiy hajmi	6 520,7 m3.
Xonadonlar soni	10 ta.
4 xonali	10 ta

A Blok - Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi - yerto‘lali 4 qavatli, 1 sektsiyali, reja bo‘yicha to‘rtburchak shaklda, M-I/1-5/1 o‘qlari bo’yicha o‘lchamlari 19,8x16,6m, yerto‘la qavati balandligi 3m, va yuqori etajlar qavatlar balandligi ham 3,3m (poldan shiftgacha). Binoning 1-4-qavatlariga zinapoya xoll, oshxona, yotoqxona, mexmonxona, umumiy xona, tambur, yuvinish va xojatxonasiga ega bo’lgan 2 va 3 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto‘la qismida yordamchi xona (texnik xona) loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko‘tarilish uchun 1ta zina va 1 ta lift mavjud. Binolarning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, gipsoqorishma, moyli bo‘yog‘, sement-qum qorishmasi va keramogranit ishlatiladi. Xonalarga sifatli MDF eshiklar va plastik oynalar o‘rnatilishi rejalashtirilgan. Tashqi bezagida: tabiiy tosh, va tashqi devor travertin suvoq bilan qoplanadi. Binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari milliy zamonaviy sifatli qurilish materiallaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

A Blok Turar-joy binosi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni	377,7 m2.
Binoning umumiy maydoni	1 778,4 m2.
Binoning umumiy hajmi	6 896,8 m3.

Xonadonlar soni	10 ta.
2 xonali	6 ta
3 xonali	4 ta

D Blok - Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi - yerto‘lali 4 qavatli, 1 sektsiyali, reja bo‘yicha to‘rtburchak shaklda, M-I/1-5/1 o‘qlari bo’yicha o‘lchamlari 19,8x16,6m, yerto‘la qavati balandligi 3m, va yuqori etajlar qavatlar balandligi ham 3,3m (poldan shiftgacha). Binoning 1-4-qavatlariga zinapoya xoll, oshxona, yotoqxona, mexmonxona, umumiy xona, tambur, yuvinish va xojatxonasiga ega bo’lgan 2 va 3 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto‘la qismida yordamchi xona (texnik xona) loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko‘tarilish uchun 1ta zina va 1 ta lift mavjud. Binolarning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, gipsoqorishma, moyli bo‘yog‘, sement-qum qorishmasi va keramogranit ishlatiladi. Xonalarga sifatli MDF eshiklar va plastik oynalar o‘rnatilishi rejalashtirilgan. Tashqi bezagida: tabiiy tosh, va tashqi devor travertin suvoq bilan qoplanadi. Binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari milliy zamonaviy sifatli qurilish materiallaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

D Blok Turar-joy binosi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni	377,7 m2.
Binoning umumiy maydoni	1 778,4 m2.
Binoning umumiy hajmi	6 896,8 m3.
Xonadonlar soni	10 ta.
2 xonali	6 ta
3 xonali	4 ta

B Blok - Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi - yerto‘lali 4 qavatli, 1 sektsiyali, reja bo‘yicha to‘rtburchak shaklda, M-I/1-5/1 o‘qlari bo’yicha o‘lchamlari 23,2x23,2m, yerto‘la qavati balandligi 3m, va yuqori etajlar qavatlar balandligi ham 3,3m (poldan shiftgacha). Binoning 1-4-qavatlariga zinapoya xoll, oshxona, yotoqxona, mexmonxona, umumiy xona, tambur, yuvinish va xojatxonasiga ega bo’lgan 2 va 3 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto‘la qismida yordamchi xona (texnik xona) loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko‘tarilish uchun 1ta zina va 1 ta lift mavjud. Binolarning ichki bezagida: suvli emulsiya bo‘yog‘i, gipsoqorishma, moyli bo‘yog‘, sement-qum qorishmasi va keramogranit ishlatiladi. Xonalarga sifatli MDF eshiklar va plastik oynalar o‘rnatilishi rejalashtirilgan. Tashqi bezagida: tabiiy tosh, va tashqi devor travertin suvoq bilan qoplanadi. Binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari milliy zamonaviy sifatli qurilish materiallaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

B Blok Turar-joy binosi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni	496,6 m2.
Binoning umumiy maydoni	2079,9 m2.
Binoning umumiy hajmi	8376,3 m3.
Xonadonlar soni	16 ta.
1 xonali	4 ta
2 xonali	4 ta
3 xonali	4 ta
4 xonali	4 ta

G Blok - Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi - yerto‘lali 4 qavatli, 1 sektsiyali, reja bo‘yicha to‘rtburchak shaklda, M-I/1-5/1 o‘qlari bo’yicha o‘lchamlari 23,2x23,2m, yerto‘la qavati balandligi 3m, va yuqori etajlar

qavatlar balandligi ham 3,3m (poldan shiftgacha). Binoning 1-4-qavatlariga zinapoya xoll, oshxona, yotoqxona, mexmonxona, umumiy xona, tambur, yuvinish va xojatxonasiga ega bo'lgan 2 va 3 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'la qismida yordamchi xona (texnik xona) loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko'tarilish uchun 1ta zina va 1 ta lift mavjud. Binolarning ichki bezagida: suvli emulsiya bo'yog'i, gipsoqorishma, moyli bo'yog', sement-qum qorishmasi va keramogranit ishlatiladi. Xonalarga sifatli MDF eshiklar va plastik oynalar o'rnatilishi rejalashtirilgan. Tashqi bezagida: tabiiy tosh, va tashqi devor travertin suvoq bilan qoplanadi. Binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari milliy zamonaviy sifatli qurilish materiallaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

G Blok Turar-joy binosi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni	496,6 m2.
Binoning umumiy maydoni	2079,9 m2.
Binoning umumiy hajmi	8376,3 m3.
Xonadonlar soni	16 ta.
1 xonali	4 ta
2 xonali	4 ta
3 xonali	4 ta
4 xonali	4 ta

V Blok - Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi - yerto'lali 4 qavatli, 1 sektsiyali, reja bo'yicha to'rtburchak shaklda, M-I/1-5/1 o'qlari bo'yicha o'lchamlari 23,2x23,2m, yerto'la qavati balandligi 3m, va yuqori etajlar qavatlar balandligi ham 3,3m (poldan shiftgacha). Binoning 1-4-qavatlariga zinapoya xoll, oshxona, yotoqxona, mexmonxona, umumiy xona, tambur, yuvinish va xojatxonasiga ega bo'lgan 2 va 3 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'la qismida yordamchi xona (texnik xona) loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko'tarilish uchun 2 ta zina va 2 ta lift mavjud. Binolarning ichki bezagida: suvli emulsiya bo'yog'i, gipsoqorishma, moyli bo'yog', sement-qum qorishmasi va keramogranit ishlatiladi. Xonalarga sifatli MDF eshiklar va plastik oynalar o'rnatilishi rejalashtirilgan. Tashqi bezagida: tabiiy tosh, va tashqi devor travertin suvoq bilan qoplanadi. Binoning ichki va tashqi pardozlash ishlari milliy zamonaviy sifatli qurilish materiallaridan foydalanilishi rejalashtirilgan.

V Blok Turar-joy binosi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni	711,7 m2.
Binoning umumiy maydoni	2432,7 m2.
Binoning umumiy hajmi	12 716 m3.
Xonadonlar soni	22 ta.
1 xonali	6 ta
2 xonali	6 ta
3 xonali	10 ta

Konstruktiv yechimlar.

Loyihalashtirilgan binoning yuk ko'taruvchi asosi ikki qavatli armo-karkasdan iborat va quyma temir-beton rama – bog'lamali konstruksiya sifatida ishlab chiqilgan. Poydevor asosi quyma temirbeton plita. Poydevorlar beton sinfi B25, armatura sinfi AIII. Erto'la devori – quyma temir-beton qalinligi t=400mm. beton sinfi B25. Ustunlar - quyma temir-beton o'lchami 400x400mm va 500x500mm, beton sinfi B25. To'sin - quyma temir-beton, o'lchami 400x400 mm (h), 400x450 mm (h) beton sinfi B25. Diafragma - quyma temir-beton, qalinligi 400 mm, beton sinfi B25. Orayopmalar – prefabrik tayyor temir beton plitadan. Shiftning konturi

bo'ylab antiseysmik kamarlar quriladi. Devorlari - tashqi devor qalinligi t=380 mm bo'lgan g’ishtdan, g’isht qorishmasi bilan teriladi, devorlar balandligi bo'ylab 525 mm oraliqda SG-1 to'rlar bilan gorizontal bo’g’inlari bilan mustahkamlanadi; vertikal o’zaklar bilan mustahkamlanadi. Pardevorlar - t=250mm g’ishtdan, g’isht qorishmasi bilan teriladi, devorlar balandligi bo'ylab 700 mm oraliqda SG to'rlar bilan gorizontal bo’g’inlari bilan mustahkamlanadi; vertikal meatl ustunlar bilan mustahkamlanadi. Zinapoyalar - quyma temir-betondan. beton sinfi B20. Lift shaxtasi - qalinligi 250mm bo'lgan quyma temirbeton. Tom tuzilmalari – yog’och konstruksiyali bo’lib yong’inga qarshi ishlov berilgan. Tom yog’och to'sinlarda profnastil bilan yopilgan. Bino atrofi bo’ylab asfaltbeton qoplamasi qilinadi.

Yong‘inga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong‘inga chidamlilik darajasi - II tipga mansub.

Konstruktiv yong‘in xavf sinfi - F1,3.

Binoning konstruktiv yong‘in xavf sinfi - C0.

Favqulotda chiqish eshiklari - yo‘laklardan hamda zinapoyalardan.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- binoning tashqi devorlari issiqlik ushlovchi bazalt qoplamasi bilan qoplangan.
- devorlar, qoplamalar tom qismi va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llangan.
- yoritish tizimida svetodiodli chiroqlari o‘rnatilgan.
- binoda qisqa vaqtda yonib-o‘chadigan qurilmalar (harakatni va yorug‘likni sezuvchi) yoritgichlardan foydalanilgan.
- kirish yo‘laklarida eshiklarni o‘zi yopuvchi mexanizmlar (dovochik) va berk yopilishi ta’minlangan.
- issiq suv ta’minoti uchun jami 19 dona 100 litrli kollektorlar rejalashtirilgan.
- obyektda 280w li jami 160 dona umumiy quvvati 44,8 kVt bo’lgan quyosh panellari rejalashtirilgan.
- loyihada jami 5 dona 8 kVt li umumiy quvvati 40 kVt bo’lgan invetorlar loyihalashtirilgan.

Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Ishchilarning bir soat uchun o‘rtacha ish haqi, obyektning dastlabki bahosini aniqlashda hudud bo‘yicha quruvchilarning o‘rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanib, me’yoriy mehnat sarfini 1 kishi-soat ko‘rsatkichining joriy narxiga (so‘m) ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari (12%) bilan qo‘shib hisoblanganda asosiy ish haqi uchun xarajat qiymati – 38 688,46 so‘m belgilangan.

Qurilish materiallari uchun sarflanadigan transport xarajatlari miqdori – 3%.

Qurilish materiallari omborda saqlash xarajatlari – 2%.

Pudratchining boshqa xarajatlari – 17,27%.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i – 12%.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan obyektning ekspertiza ko‘rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda – 62 640 697,903 ming so‘mni tashkil qiladi.

Obyektning yakuniy smeta xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyihalanayotgan obyekt tasdiqlangan loyihalash topshirig‘iga hamda tegishli manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan texnik shartlarga asosan, elektr ta’minoti va elektr yoritish, yong‘in signalizatsiyasi, yong‘in xavfsizligi tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari

loyihada ko‘zda tutilgan.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti mazkur obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlari va tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish bo‘yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga asosan loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, o‘rnatilgan tartibda kelishilsin. Natijasi bo‘yicha, loyiha-smeta hujjatlari ShNQ 1.03.06-16 va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlari talablariga rioya etgan holda ekspertiza ko‘rigidan o‘tkazish uchun taqdim etilsin.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Toshkent shahar Qurilish boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organi tomonidan 23.06.2023-yil berilgan 73741-sonli xulosasi. Davlat ekologiya ekspertiza markazi Toshkent shahar filialining 25.09.2024-yildagi 01-02/14-2046-sonli xulosasi.

Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

Hududiy yong‘inga qarshi nazorat xizmati hamda Hududiy sanitariya-epidemologiya xizmati bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **62 640 697 903** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

1 389 234 203 so'mga kamaytirilib, **61 251 463 700** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **52 337 314 606** so'm

Asbob-uskunalar: **2 351 492 266** so'm

QQS: **6 562 656 828** so'm

Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihadagi qisman tuzatishlar bo‘yicha smeta xarajatlarini joriy narxlarda qayta hisoblash va qurilish me’yorlarini aniqlashtirish (loyiha tashkilotining javob xatlarini inobatga olgan holda) natijasida buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda – 1 389 234,203 ming so‘mga qiymati kamaydi.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan 2021-yilda tasdiqlangan “Shaharsozlik kodeksi” talablariga asosan Loyiha yon qo‘shnilar va mahalla fuqorolar yig‘ini bilan kelishilsin.

Bosh rejaga ko’ra binolar oraliq masofasi ShNQ 2.07.01-03. 12.06.2023-yildagi 153-sonli Shaharsozlik, Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish “shaharsozlik normalari va qoidalari”ga o'zgartish va qo'shimchalar 1-17-18-19-ilovaga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Bosh reja loyihasi texnik topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan. Binolarni joylashtirish yong'in va sanitariya standartlariga muvofiq ishlab chiqilishi taminlansin hamda loyihaning qurilish va texnologik bo’limlariga qo'yiladigan talablar inobatga olinsin. Vertikal tartib drenaj talablari asosida ishlab chiqilsin.

Hudud bosh rejada qizil chiziq bilan chegaralangan. Bino atrofida yong`in hafvsizligi qoidalariga binoan o’t o’chirish yo’lagi ko’zda tutilishi hamda yondosh binolari oraliq masofasi inobatga olinishi kerak. ShNQ 2.07.01-03. 341-band, 678-band va boshqalar.

Avtoturargohlar soni honadonlar soni xisobidan ShNQ 2.07.01-03. 416-band. 29-jadvalga ko’ra ko’zda tutilish kerak.

Yashil maydon hududning umumiy maydonining kamida 25% ni tashkil qilishi kerak. ShNQ 2.07.01-03. 474-bandga asosan.

Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023-yildagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.2019-yildagi PQ-4545-sonli qarorining bandlari bajarilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 26.12.2018-yildagi “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1050-son hamda 15.05.1998-yildagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo‘riqlash qoidalariga amal qilinsin.

Shartnoma bo‘yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog‘liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o‘tkazilmadi.

Buyurtmachi obyekt bo‘yicha o‘rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 22.04.2021-yildagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonun talablariga rioya etilsin.

Ushbu obyekt uchun ajratilgan yer maydoni aholi jichligi va turar-joyda yashovchilar soniga qarab, yani ShNQ 2.07.03-03*ning 3 jadvali va 23* bandiga asosan olinsin hamda ijtimoiy binolarni (maktab, bog‘cha, poliklinika va boshqa) hisobga olinsin Avtoturargohdagi avtomobillar sonini ShNQ 2.07.01.-03* ning 3-bandi talablariga amal qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2020-yildagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli farmonining tegishli bandlarida ko‘rsatilgan talablarga to‘liq rioya qilinsin.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 255-sonli qarori talablariqa rioya etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-son va 20.04.2022-yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi PQ-332-sonli Qarorining 2-ilovasi, 1-bob, 4-bandiga asosan ishchi loyiha yong’in havfsizligi bo’yicha FVV bilan kelishilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266-sonli va ShNQ 2.07.02-22 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablariga to‘liq amal qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 15-mavzesida Ko‘p qavatli avtoturargoh hududida loyihalashtirilayotgan “Ko‘p qavatli avtoturargoh binosi va bir qismida ko‘p qavatli turar-joy binosini qurib rekonstruksiya qilinayotgan obyektni muhandislik tarmoqlari bilan ta’minlash” ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori, buyurtmachning boshqa xarajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda – 61 251 463,700 ming so‘mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzishga asos bo‘la olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o‘tkazish uchun ob’yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Inomov Yusuf Begali O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Sagatov Mirabid Xxx, Musayev Rustam Talatovich, Amanova Miyassar Aliyevna, Dosmuxamedova Mariya Valerevna, Oqilxonov Jahongirxon Olimxon O‘g‘li, Atabayev Daniyar Baxtiyarovich, Babayev Aloviddin Nizamudinovich, Toirov Sardor Zafarovich, Shirnazarov Tohir Abdullayevich, Narmuxamedov Ilxom Nigmatovich, Inomov Yusuf Begali O‘g‘li